

“ZIYORATGOHLAR ATROFIDA TURIZM FAOLIYATINING MAHALLIY AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA’SIRI”

¹Barno Mammetova, ²Barkamol Ernazarov

¹Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institute Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, ²Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajor-o‘qituvchisi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institute Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

ORCID ID: 0009-0007-4186-2802, ORCID: 0009-0004-3606-3596

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20092740>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda turizm faoliyatining mahalliy aholi turmush darajasiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mahalliy aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida ziyorat turizmining iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatlari baholandi. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmi hudud rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ekologik muammolar, narxlarning oshishi va infratuzilma yuklamasi kabi salbiy omillar ham aniqlangan. Maqolada ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish, mahalliy aholi manfaatlarini ta’minlash va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ziyorat turizmi, mahalliy aholi, turmush darajasi, barqaror turizm, ijtimoiy mas’uliyat, hududiy rivojlanish, turizm infratuzilmasi, bandlik, iqtisodiy ta’sir, community-based tourism.

Abstract. This article examines the impact of tourism activities in pilgrimage sites on the living standards of the local population. Based on the results of a sociological survey, the economic, social, and infrastructural aspects of pilgrimage tourism were analyzed. The findings indicate that pilgrimage tourism contributes positively to regional development, job creation, and income growth among local residents. However, certain negative effects were also identified, including environmental issues, rising prices, and increased pressure on infrastructure. The paper provides practical recommendations aimed at ensuring the sustainable development of pilgrimage tourism while addressing local community interests and strengthening social responsibility.

Keywords: Pilgrimage tourism, local community, living standards, sustainable tourism, social responsibility, regional development, tourism infrastructure, employment, economic impact, community-based tourism.

Абстракт. В данной статье анализируется влияние туристической деятельности в зонах паломничества на уровень жизни местного населения. В рамках исследования на основе результатов социологического опроса были оценены экономические, социальные и инфраструктурные аспекты паломнического туризма. Результаты показали, что развитие паломнического туризма оказывает положительное влияние на развитие территории, создание новых рабочих мест и рост доходов населения. В то же время выявлены и негативные факторы, такие как экологические проблемы, рост цен и нагрузка на инфраструктуру. В статье предложены практические рекомендации по устойчивому

развитию паломнического туризма с учетом интересов местного населения и принципов социальной ответственности.

Ключевые слова: *Паломнический туризм, местное население, уровень жизни, устойчивый туризм, социальная ответственность, региональное развитие, туристическая инфраструктура, занятость, экономическое воздействие, community-based tourism.*

Kirish.

So‘nggi yillarda global turizm tizimida diniy va madaniy merosga asoslangan sayohat turlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ziyorat turizmi ko‘plab mamlakatlarda turizm industriyasining muhim segmentlaridan biri sifatida shakllanib, nafaqat diniy-ma‘naviy qadriyatlarni saqlash, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ziyoratchilar oqimining ortishi xizmat ko‘rsatish sektori, transport, savdo va mehmondo‘stlik infratuzilmasining rivojlanishiga turtki berib, mahalliy iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, turizm faoliyatining hududiy rivojlanishga ta‘siri masalasi zamonaviy turizm tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonga 6,7 million nafar turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 8 million nafardan oshgan¹, 2025-yilda esa 11,7 million nafarga yetgan². Bu esa turizm, xususan ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiyotida tobora muhim o‘rin egallab borayotganini ko‘rsatadi.

Ziyoratchilar va sayyohlar oqimi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining kengayishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratadi. Natijada ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda savdo, transport xizmatlari, mehmonxona xo‘jaligi, ovqatlanish shoxobchalari hamda suvenir ishlab chiqarish kabi iqtisodiy faoliyat turlari jadal rivojlanadi. Bu jarayon esa mahalliy aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarning muhim qismi aynan ziyorat maqsadida keladi. Ayniqsa, musulmon davlatlari, jumladan Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Hindiston hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan sayyohlar oqimi yuqori bo‘lib, bu mamlakatlar bilan tarixiy, diniy va madaniy aloqalar ziyorat turizmi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, umumiy turistlar oqimining yarmidan ortig‘i aynan turkiy va musulmon mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, bu esa ziyorat turizmining O‘zbekiston turizm tizimidagi ulushi yuqori ekanini anglatadi.

O‘zbekiston ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Zangi ota, Hakim at-Termiziy kabi buyuk allomalar bilan bog‘liq ko‘plab ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ular har yili minglab mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni jalb etmoqda. So‘nggi yillarda davlat tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirish, ziyoratgohlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xalqaro ziyorat turizmi yo‘nalishlarini kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

¹ Uzbekistan – Travel and Tourism // International Trade Administration. – 2025. – URL: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

² 11.7 million tourists visited Uzbekistan in 2025 // O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. – 2026. – URL: <https://stat.uz/oz/19-news/committee-news/66311-11-7-million-tourists-visited-uzbekistan-in-2025>

Shu nuqtai nazardan, ziyorat turizmi faoliyatining mahalliy aholi turmush darajasiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ziyoratgohlar atrofida yashovchi aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida turizm faoliyatining mahalliy aholi iqtisodiy farovonligi, bandligi, infratuzilma rivoji hamda ijtimoiy muhitga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda turizm faoliyatining mahalliy aholi turmush darajasiga ta'sirini aniqlash maqsadida sotsiologik so'rov usulidan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini ziyorat turizmi ta'siri seziladigan hududlarda yashovchi mahalliy aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tashkil etdi. So'rovnomada jami 261 nafar respondent ishtirok etdi.

So'rovnoma savollari bir nechta yo'nalishlarni qamrab oldi: ziyorat turizmining hudud rivojlanishiga ta'siri, mahalliy aholi daromadlari va bandligiga ta'siri, infratuzilma holati, ekologik muammolar hamda mahalliy aholining turizm faoliyatidagi ishtiroki. Respondentlarning javoblari asosan yopiq turdagi savollar orqali yig'ildi, bu esa olingan ma'lumotlarni statistik jihatdan qayta ishlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ularning takrorlanish chastotasi va ulushi foiz ko'rinishida tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslama tahlil usuli yordamida ziyorat turizmining iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.


O'tkazilgan so'rovnoma natijalari ziyorat turizmining ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda yashovchi mahalliy aholi turmush darajasiga turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. So'rovda jami 261 nafar respondent ishtirok etib, ularning fikrlari asosida turizm faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatlari tahlil qilindi.

Avvalo, respondentlarning ziyorat turizmining hudud rivojlanishiga ta'siri haqidagi fikrlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 81 nafari (31%) ziyorat turizmi hudud rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatishini bildirgan bo'lsa, 114 nafari (44%) uning ta'sirini o'rtacha darajada deb baholagan. Shu bilan birga, 39 respondent (15%) kichik ta'sir mavjudligini, 27 respondent (10%) esa turizmning hudud rivojlanishiga deyarli ta'siri yo'qligini qayd etgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning qariyb 75 foizi ziyorat turizmini hudud rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholaydi.



Rasm 1. Ziyorat turizmning hudud rivojiga ta'siri bo'yicha aholi fikri.


Tadqiqot davomida ziyoratchilar oqimining mahalliy aholi iqtisodiy holatiga ta'siri ham alohida o'rganildi. Respondentlarning 129 nafari (49%) ziyoratchilar oqimi mahalliy aholiga sezilarli iqtisodiy foyda keltirayotganini ta'kidlagan. 92 respondent (35%) bu foyda qisman mavjudligini bildirgan bo'lsa, 40 respondent (16%) esa turizm faoliyatining iqtisodiy ta'siri deyarli sezilmasligini qayd etgan. Ushbu ko'rsatkichlar ziyorat turizmi hudud iqtisodiyotida muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, savdo, transport, umumiy ovqatlanish va mehmondo'stlik xizmatlari sohalarida mahalliy aholining iqtisodiy faolligi oshgani kuzatiladi.



Rasm 2. Ziyorat turizmning mahalli aholi iqtisodiyotiga foydasi bo'yicha aholi fikri.

Ziyorat turizmi rivojlanishining muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalaridan biri sifatida yangi ish o'rinlari yaratilishi ham tahlil qilindi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 120 nafari (46%)


ziyorat turizmi tufayli yangi ish o‘rinlari yaratilganini bildirgan. 69 respondent (26%) bu jarayon qisman amalga oshayotganini ta’kidlagan bo‘lsa, 72 respondent (28%) ish o‘rinlari yaratish borasida sezilarli o‘zgarishlarni kuzatmaganini bildirgan. Bu natijalar ziyorat turizmi mahalliy aholi bandligini ta’minlashda muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi.



Rasm 3. Ziyorat turizmning yangi ish o‘rinlarini yaratishi bo‘yicha aholi fikri.

So‘rovnoma natijalarida ziyoratchilar sonining ko‘payishi mahalliy aholi kundalik hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani ham o‘rganildi. Respondentlarning 133 nafari (51%) ziyoratchilar oqimi kundalik hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini bildirgan. 117 respondent (45%) esa bu jarayon sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi, deb hisoblaydi. Salbiy ta’sir mavjudligini bildirgan respondentlar ulushi nisbatan kam bo‘lib, atigi 11 respondent (4%) ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich ziyorat turizmi mahalliy ijtimoiy muhitga nisbatan barqaror ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. (Rasm 4).

Shu bilan birga, turizm faoliyati bilan bog‘liq ayrim muammolar ham aniqlangan. Respondentlarning fikriga ko‘ra, ziyorat turizmi rivojlanishi bilan yuzaga kelayotgan asosiy muammolar qatoriga atrof-muhitning ifloslanishi (81 respondent), narxlarning oshishi (47 respondent), transport tirbandligi va shovqin (45 respondent) hamda madaniy qadriyatlarining buzilishi (26 respondent) kiradi. Mazkur natijalar turizm faoliyatini rivojlantirish jarayonida ekologik va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi.




Rasm 4. Ziyoratlar sonining oshishining kundalik hayotga ta’siri bo‘yicha aholi fikri.

Infratuzilma masalalari ham respondentlar tomonidan baholandi. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 77 nafari (29%) ziyoratgohlar atrofidagi infratuzilma yaxshi holatda ekanini bildirgan bo‘lsa, 132 respondent (51%) infratuzilma qisman yetarli ekanini qayd etgan. Shu bilan birga, 52 respondent (20%) infratuzilma yetarli emasligini ta’kidlagan. Ushbu natijalar ziyorat turizmi rivojlanishi bilan infratuzilmaga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarida mahalliy aholi ishtirokining muhimligi ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Respondentlarning 243 nafari (93%) ziyoratgohlarni saqlash va rivojlantirish jarayonida mahalliy aholining ishtiroki muhim yoki juda muhim ekanini bildirgan. Bu esa ziyorat turizmini rivojlantirishda community-based tourism, ya’ni mahalliy hamjamiyatga asoslangan turizm yondashuvining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, respondentlarning katta qismi ziyorat turizmi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ta’kidladi. Xususan, 152 respondent (58%) turizm yoshlar uchun yangi ish va tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratmoqda deb hisoblaydi. Bu holat turizm sohasining hududiy bandlikni ta’minlashdagi rolini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma yakunida respondentlardan ziyorat turizmining hudud kelajagi uchun umumiy foydaliligi haqida fikr so‘raldi. Natijalarga ko‘ra, 231 respondent (88%) ziyorat turizmi hudud kelajagi uchun foydali yoki juda foydali ekanini bildirgan. Bu ko‘rsatkich ziyorat turizmi hududiy rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi.



Rasm 5. Ziyorat turizmning hudud kelajagiga foydasi bo'yicha aholi fikri.

Umuman olganda, olingan natijalar ziyorat turizmi mahalliy iqtisodiyot rivojiga, aholi daromadlarining oshishiga hamda xizmat ko'rsatish sektorining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, turizm faoliyatini barqaror rivojlantirish uchun ekologik muammolarni kamaytirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda turizm boshqaruvini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda turizm faoliyati mahalliy aholi turmush darajasiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. So'rovnoma ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, ziyorat turizmi bir tomondan hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirayotgan, ikkinchi tomondan esa infratuzilmaviy, ekologik va ijtimoiy bosimlarni yuzaga keltirayotgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ziyorat turizmini faqat ziyoratchilar oqimi yoki xizmatlar sonining ortishi bilan baholash yetarli emas; uning mahalliy hamjamiyat hayotiga ta'sirini kompleks ko'rib chiqish zarur.

Avvalo, olingan natijalar ziyorat turizmi hududiy rivojlanishning muhim omili ekanini ko'rsatdi. Respondentlarning asosiy qismi turizm hudud rivojiga katta yoki o'rtacha darajada ta'sir ko'rsatayotganini qayd etgani, mazkur faoliyat mahalliy miqyosda iqtisodiy o'sish drayveri sifatida qabul qilinayotganini anglatadi. Bu holat, eng avvalo, xizmatlar sektorining kengayishi, savdo nuqtalari sonining ko'payishi, transport xizmatlariga talab ortishi va kichik tadbirkorlikning faollashuvi bilan izohlanadi. Ziyoratgoh atrofida shakllanadigan iqtisodiy muhit ko'pincha to'g'ridan to'g'ri turizmga xizmat qiluvchi tarmoqlar bilangina cheklanmay, bilvosita tarzda boshqa faoliyat sohalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, ziyorat turizmi hududiy iqtisodiyotda multiplikativ samara hosil qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, respondentlarning sezilarli qismi ziyoratchilar oqimi mahalliy aholi uchun iqtisodiy foyda keltirayotganini e'tirof etgan. Bu natija ziyorat turizmi mahalliy aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, vaqtincha savdo, oziq-ovqat mahsulotlari savdosi, transport xizmati, mehmon uylari, milliy hunarmandchilik buyumlari va suvenirlar realizatsiyasi kabi yo'nalishlarda turizmning real iqtisodiy ta'siri seziladi. Biroq respondentlarning bir qismi iqtisodiy

foydani faqat qisman sezayotganini bildirgani mazkur daromadlarning barcha aholi qatlamlariga teng taqsimlanmayotganidan dalolat beradi. Demak, ziyorat turizmi hududda iqtisodiy faollik yaratmoqda, biroq uning samarasidan kimlar ko'proq foydalanayotgani alohida tahlilni talab qiladi. Bu holat daromadlarning muayyan guruhlar yoki turizmga yaqin iqtisodiy subyektlar qo'lida jamlanishi ehtimolini ko'rsatadi.

Yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham ziyorat turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi. Respondentlarning deyarli yarmi turizm tufayli yangi ish o'rinlari paydo bo'lganini qayd etgani ushbu sohaning hududiy bandlikni ta'minlashda muhim zaxira ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, rasmiy mehnat bozoriga to'liq kira olmayotgan yoshlar, ayollar va mavsumiy ish bilan shug'ullanuvchi aholining ayrim qatlamlari uchun turizm nisbatan qulay iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, ish o'rinlari yaratilishi haqidagi ijobiy baholarga qaramay, respondentlarning muayyan qismi bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishni kuzatmagan. Bu esa ikki muhim xulosaga olib keladi: birinchidan, yaratilayotgan ish o'rinlari soni mavjud ehtiyojga nisbatan yetarli bo'lmasligi mumkin; ikkinchidan, mavjud ishlarning bir qismi mavsumiy, barqaror bo'lmagan yoki past daromadli bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shunday ekan, ziyorat turizmi asosidagi bandlikni baholashda faqat ish o'rinlari soni emas, balki ularning sifati, barqarorligi va ijtimoiy himoya darajasi ham muhim hisoblanadi.

Respondentlarning ziyoratchilar oqimining kundalik hayotga ta'siri bo'yicha bildirgan fikrlari ham diqqatga sazovor. Ko'pchilik respondentlar bu ta'sirni ijobiy yoki neytral deb baholagan. Bu holat mahalliy aholi ziyorat turizmini umumiy ma'noda qabul qilayotganini, ziyoratchilar oqimi hududda keskin ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'lmayotganini ko'rsatadi. Bunday natija, ayniqsa, ziyorat turizmining oddiy rekreatsion turizmga nisbatan ma'naviy-axloqiy komponenti kuchliroq ekani bilan ham izohlanishi mumkin. Ziyorat maqsadida keluvchi tashrif buyuruvchilar odatda diniy qadriyatlar va muqaddas joylarga hurmat bilan yondashgani sababli, mahalliy aholi bilan ziddiyat darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. Biroq neytral javoblarning yuqori ulushi shuni ham ko'rsatadiki, ziyorat turizmi ko'pchilik uchun sezilarli noqulaylik tug'dirmayotgan bo'lsa-da, uning ijobiy samarasini hamma ham bir xil darajada his qilmayapti.

Muhokama qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri — turizm bilan bog'liq salbiy oqibatlarining mavjudligidir. So'rovnoma natijalariga ko'ra, atrof-muhitning ifloslanishi, narxlarning oshishi, transport tirbandligi va shovqin kabi muammolar mahalliy aholi tomonidan eng ko'p tilga olingan. Bu ko'rsatkichlar ziyorat turizmi hududga iqtisodiy foyda olib kirishi bilan birga, ma'lum "ijtimoiy xarajatlar"ni ham yuzaga keltirayotganini anglatadi. Ayniqsa, ekologik muammolarning birinchi o'rinda qayd etilgani juda muhim signal hisoblanadi. Chunki ziyoratgohlar atrofidagi tabiiy va madaniy muhitning ifloslanishi nafaqat mahalliy aholi hayot sifatiga, balki ziyorat obyektlarining uzoq muddatli jozibadorligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Agar turizm bugun daromad olib kelib, ertaga hududni chiqindi va tartibsizlik bilan qoldirsa, bu barqaror rivojlanish emas, shunchaki chiroyli muammo bo'lib qoladi.

Narxlarning oshishi bilan bog'liq xavotirlar ham iqtisodiy foyda va iqtisodiy bosim o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Turizm rivojlangan hududlarda talab oshishi natijasida ayrim tovar va xizmatlar narxining ko'tarilishi tabiiy jarayon bo'lsa-da, bu mahalliy aholi xarid qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ayniqsa, past va o'rta daromadli qatlamlar uchun kundalik xarajatlarning ortishi turizmning ijobiy iqtisodiy samarasini qisman neytrallashtirib yuborishi mumkin. Shu sababli ziyorat turizmini

rivojlantirish siyosatida mahalliy aholi iste'mol manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlar ham nazarda tutilishi lozim.

Transport tirbandligi va shovqin bilan bog'liq javoblar esa ziyorat turizmining infratuzilmaviy yuklamasini ifodalaydi. Ziyoratchilar oqimining ma'lum kunlar, diniy sanalar yoki mavsumiy davrlarda keskin ortishi hududdagi yo'l tarmog'i, transport qatnovi, piyodalar harakati va umumiy jamoat makonidan foydalanish sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, ziyorat turizmini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun faqat obyektning o'zi yoki atrofidagi savdo nuqtalarini emas, balki butun hududiy logistika tizimini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Aks holda turizm oqimi ortishi bilan infratuzilma imkoniyatlari o'rtasida nomutanosiblik kuchayib boradi.

Infratuzilma bilan bog'liq natijalar ham aynan shu xulosani mustahkamlaydi. Respondentlarning yarmidan ko'pi infratuzilmani qisman yetarli deb baholagan. Bu juda qiziq indikator: demak, vaziyat yomon emas, lekin yaxshi deb maqtanishga ham erta. Ya'ni hududlarda ma'lum infratuzilmaviy baza mavjud, biroq u ziyoratchilar oqimi, xizmat sifati va mahalliy ehtiyojlar nuqtai nazaridan to'liq mukammal darajaga yetmagan. "Qisman yetarli" degan javob amalda yo'llar, sanitariya sharoitlari, chiqindi boshqaruvi, yo'naltiruvchi belgilar, parking, dam olish joylari va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan muhit kabi elementlarda tizimli takomillashtirish zarurligini anglatadi. Bu esa ziyorat turizmini rivojlantirishni alohida obyekt emas, balki hududiy boshqaruv masalasi sifatida ko'rish kerakligini ko'rsatadi.

Mahalliy aholining ziyoratgohlarni saqlash va rivojlantirishdagi ishtiroki masalasida olingan natijalar alohida e'tiborga loyiq. Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi mahalliy aholi ishtirokini muhim deb baholagan ziyorat turizmini yuqoridan turib emas, hamjamiyat bilan birga boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Bu natija bugungi turizm nazariyasidagi "community-based tourism" yondashuvi bilan to'liq mos keladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, mahalliy aholi turizmning oddiy kuzatuvchisi emas, balki manfaatdor tomoni, tashabbus subyekti va natijadan foyda oluvchi asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lishi kerak. Agar turizm hududga tashqi investitsiya va tashqi operatorlar orqali kirib kelib, mahalliy aholiga faqat tomoshabinlik rolini qoldirsa, bunday model uzoq muddatda ijtimoiy norozilik, manfaatlar nomuvofiqligi va madaniy begonalashuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ziyorat turizmini rejalashtirishda mahalliy aholining ovozi eshitilishi, ularning takliflari va ehtiyojlari inobatga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalari ziyorat turizmining yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi borasida ham ijobiy tendensiyani ko'rsatdi. Bu, ayniqsa, hududlarda yoshlar bandligi masalasi dolzarb bo'lgan sharoitda muhim ahamiyatga ega. Turizm sektori nisbatan moslashuvchan bo'lgani uchun yoshlar uchun gidlik, tarjimonlik, transport xizmati, reklama, savdo, mehmon uylari faoliyati, raqamli targ'ibot va tadbirkorlik kabi bir qator yo'nalishlarda ish va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq bu salohiyatdan to'liq foydalanish uchun kasbiy tayyorgarlik, qisqa muddatli kurslar, xizmat ko'rsatish madaniyati va til ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Aks holda turizm yaratgan imkoniyatlar mavjud bo'ladi, lekin ulardan foydalanadigan mahalliy kadrlar yetishmasligi mumkin.

Respondentlarning 88 foizi ziyorat turizmini hudud kelajagi uchun foydali yoki juda foydali deb baholagan mazkur faoliyat turi mahalliy hamjamiyat tomonidan strategik imkoniyat sifatida qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Bu juda muhim natija, chunki aholining ijobiy qabul qilishi har qanday turizm siyosatining ijtimoiy legitimligini belgilaydi. Agar mahalliy aholi turizmni o'z manfaatlariga zid deb hisoblasa, eng chiroyli loyihalar ham qog'ozda qolib ketadi. Aksincha, aholida

foydalilik haqidagi tasavvur kuchli bo'lsa, bu hamkorlik, tadbirkorlik va ijtimoiy sheriklik uchun qulay zamin yaratadi. Biroq bu ijobiy baho turizmning barcha muammolari hal bo'lganini anglatmaydi; aksincha, mavjud ijobiy kayfiyatdan foydalanib, tizimli muammolarni bartaraf etish uchun ayni payt ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ziyorat turizmining mahalliy aholi turmush darajasiga ta'siri asosan ijobiy ekanini ko'rsatadi, biroq bu ta'sir bir xil va mutlaq emas. Iqtisodiy foyda, bandlik va hududiy rivojlanish borasida sezilarli ijobiy siljishlar mavjud bo'lsa-da, ekologik muammolar, infratuzilma bosimi, narxlar oshishi va foydaning notekis taqsimlanishi kabi masalalar ziyorat turizmini boshqarishda ehtiyotkor, muvozanatli va barqaror yondashuvni talab qiladi. Shu ma'noda, ziyorat turizmi rivoji mahalliy aholi manfaatlari, hududiy resurslar sig'imi va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'unlashgan taqdirdagina uzoq muddatli samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa va amaliy takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda turizm faoliyati mahalliy aholi turmush darajasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. So'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning katta qismi ziyorat turizmini hudud rivojlanishining muhim omili sifatida baholagan bo'lib, ayniqsa iqtisodiy faollikning ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi ijobiy jihatlar sifatida qayd etilgan. Bu esa ziyorat turizmi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ziyorat turizmining ijobiy ta'siri barcha aholi qatlamlari uchun bir xil darajada sezilmayotganini ham ko'rsatdi. Ayrim respondentlar iqtisodiy foydaning qisman yoki umuman sezilmasligini qayd etgan bo'lib, bu turizm daromadlarining hudud ichida notekis taqsimlanayotganini anglatadi. Bundan tashqari, ekologik muammolar, narxlarning oshishi, transport yuklamasi va infratuzilma yetishmovchiligi kabi omillar turizm faoliyatining salbiy jihatlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, ziyorat turizmi rivoji bilan bog'liq jarayonlarni faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik tamoyillari asosida boshqarish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi aniq amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda infratuzilmani kompleks rivojlantirish zarur. Bu jarayonda yo'l-transport tizimini takomillashtirish, sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, chiqindilarni boshqarish tizimini joriy etish hamda ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va hududlarni toza saqlash bo'yicha tizimli choralar ko'rilishi lozim.

Ikkinchidan, ziyorat turizmi orqali olinayotgan iqtisodiy foydani mahalliy aholi o'rtasida yanada adolatli taqsimlash mexanizmlarini joriy etish zarur. Buning uchun mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va oilaviy biznes subyektlariga imtiyozlar berish, mahalliy aholining turizm xizmatlarida bevosita ishtirokini kengaytirish muhimdir. Xususan, mehmon uylari, hunarmandchilik mahsulotlari, milliy taomlar va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish mumkin.

Uchinchidan, ziyorat turizmi hududlarida mahalliy aholi ishtirokiga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy aholi fikrini inobatga olish, jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish hamda qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ishtirokini ta'minlash zarur. Bu yondashuv turizm rivojlanishining ijtimoiy barqarorligini oshiradi va manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ziyorat turizmi bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy muammolarni kamaytirish maqsadida ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini kuchaytirish lozim. Turizm subyektlari va tadbirkorlar uchun ekologik standartlar joriy etish, ziyoratchilar uchun xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish va targ'ib qilish, madaniy merosni asrashga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, ziyorat turizmi orqali yoshlar bandligini oshirish va ularning turizm sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur. Bu borada kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish, gidlik, xizmat ko'rsatish va xorijiy tillar bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish, yosh tadbirkorlar uchun grant va subsidiyalar ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa turizmning ijtimoiy samaradorligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish mahalliy aholi manfaatlari, hududiy resurslar va ekologik muvozanat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashni talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari ziyorat turizmi hududiy rivojlanish uchun katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi, biroq bu salohiyatdan samarali foydalanish uchun tizimli, ilmiy asoslangan va ijtimoiy mas'uliyatga tayangan boshqaruv yondashuvi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Uzbekistan – Travel and Tourism // International Trade Administration. – 2025. – URL: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>
2. 11.7 million tourists visited Uzbekistan in 2025 // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. – 2026. – URL: <https://stat.uz/oz/19-news/committee-news/66311-11-7-million-tourists-visited-uzbekistan-in-2025>